# El va inson azizligini his etib



Istiqlolning sharofati mamlakatimiz uchun keng imkoniyatlar darvozasini ochdi. Jumladan, ilm-fan, ta’lim va sport sohasidagi erishilayotgan muvaffaqiyatlarning garvi ham mustaqilligimiz nashidasidir. Prezidentimiz boshchiligida o‘tkazilgan Davlat mustaqilligining 31 yilligi shodiyonalarida bular alohida e’tirof etildi.



Yangi o‘quv yilidagi yangicha ruh va shukuh Yangi O‘zbekiston yoshlariga ayricha ta’sir qilgani rost. Barcha oliy o‘quv yurtlarida bo‘lgani kabi milliy tadqiqot universitetimizda ham ilk saboq Mustaqillik darsi sifatida boshlandi. Unda “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz” degan bosh g‘oyaning mohiyati bilan birgalikda Istiqlol baxsh etgan saodatmandlik haqida so‘z bordi.

Yre resurslarini boshqarish fakulteti yoshlar bilan ishlash bo`yicha dekan muovini H.Eshova axboroti